

Texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari.

Abdimo‘min Choriyev Xolto‘rayevich

Surxondaryo Viloyati Qiziriq Tumani

45-umumiy o‘rta ta‘lim maktabi Texnologiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya:Texnologiya” darsligi insonlar hayotida muhim o‘rin tutuvchi amaliy mehnat faoliyatiga tayyorgarlik ko‘rishda muhim o‘rin tutadi. Voyaga yetib, qaysi kasbni egallamang, kim bo‘lmang, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko‘nikmalaringiz Sizga hayotda, albatta, naf keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, moslamalar va ulardan foydalanishga oid bilimlarni o‘zlashtirasiz. Mahsulot ishlab chiqarish va uyro‘zg‘or buyumlarini ta‘mirlashga oid ko‘nikma va malakalarga ega bo‘lasiz. O‘quvchilarning turli materiallarga ishlov berish usullarini egallashida kerak bo‘ldigan qobiliyatlar va ularni shakllantirishga doir jihatlar keltirib o‘tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog‘liq umummehnat ko‘nikmalari har bir inson hayotida muhim o‘rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a‘zosining bilim va salohiyatini to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanib borayotganligi bu ko‘nikmalarning zaruratini yanada oshirmoqda.

Kalit so‘zlar: Texnologiya, o‘qitish metodikasi, axborot texnologiyalari, mahsulot, jihozlar, uskunalar, texnologik jarayonlar, kasb-hunar.

Odamlar hayotida muhim o‘rin tutadigan amaliy ishlarga tayyorlashda “Texnologiya” darsligi muhim o‘rin tutadi. Voyaga yetgach, qaysi kasbni egallashingizdan, kim bo‘lishingizdan qat’i nazar, “Texnologiya” fanidan olgan bilim va ko‘nikmalaringiz hayotda sizga albatta foyda keltiradi. “Texnologiya” darslarida materialshunoslik, asbob-uskunalar, qurilmalar va ulardan foydalanish bilan tanishasiz. Siz mahsulot ishlab chiqarish va maishiy texnikani ta‘mirlash bilan

bog'liq ko'nikma va malakalarga ega bo'lasiz. Talabalarning turli materiallarni qayta ishlash usullarini o'zlashtirishlari uchun zarur bo'lgan qobiliyat va ularni shakllantirish tomonlari aytib o'tilgan. Zero, materiallarga ishlov berish bilan bog'liq umumiy mehnat ko'nikmalari har bir inson hayotida muhim o'rin tutadi. Jamiyatimizning har bir a'zosining bilim va salohiyatini to'la ro'yobga chiqarishga qaratilgan bozor munosabatlarining rivojlanishi bu ko'nikmalarga bo'lgan ehtiyojni oshiradi. Ijod – yangi g'oya asosida moddiy va ma'naviy boyliklar yaratishdir. Ijodiy faoliyat tufayli hayotimiz yanada qulay va qiziqarli bo'lib bormoqda. Sizni o'rab turgan barcha ob'ektlar, qurilmalar va jihozlar ijodiy odamlar tomonidan yaratilgan texnik vositalar va texnologiyalar mahsulotidir. Ularning mehnati natijasida ulkan samolyotlar, zamonaviy avtomobillar, katta imkoniyatlarga ega kompyuterlar va biz uchun qadrli bo'lgan boshqa ne'matlar yaratildi. Ta'lim sohasidagi ilmiy-pedagogik adabiyotlarda texnologiya, pedagogik texnologiya, texnologik yondashuv, ta'limni texnologiyalashtirish, texnologik o'qitish haqida so'z boradi va ularga turli talqin va ta'riflar beriladi. Menimcha, avvalo “texnologiya” so'zining ma'nosini bilib olish maqsadga muvofiqdir. “Texnologiya” so'zining yunon tilidan tarjimasi tayyor mahsulot va buyumlarni olish maqsadida ishlab chiqarishning tegishli qurilmalari va jihozlari bilan xomashyo va materiallarni qayta ishlash usullari majmuini tizimlashtirgan fanni bildiradi. Shuning uchun bo'lsa kerak, u ba'zan “texno” – hunar yoki san'at, “logos” – fan, mahsulot olish uchun xom ashyoni qayta ishlash san'ati haqidagi fan sifatida ham e'tirof etiladi. Shu nuqtai nazardan bo'lsa kerak, Yevropa mamlakatlarida, jumladan Germaniya va Rossiya maktablarida «Mehnat ta'limi» o'quv predmetini «Texnologiya» yoki «Texnologik ta'lim» deb yuritiladi. Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi - o'quvchilarda texnik-texnologik hamda texnologik jarayon davomida bajariladigan operatsiyalar yuzasidan olgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustaqil amaliy faoliyatida qo'llash, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga kirisha olish kompetensiyalarini shakllantirishdan iborat. Umumiy

oʻrta taʼlim muassasalarida texnologiya oʻquv fanini oʻqitishning asosiy vazifalari: materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid maʼlumotlarni oʻrganish; texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish; texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qoʻllay olish; texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish; buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish; ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida texnologiya oʻquv fanini oʻqitishning asosiy vazifalari: materiallar va ularning xossalari, xususiyatlari hamda texnik obyekt va texnologik jarayonlarga oid maʼlumotlarni oʻrganish; texnik obyekt hamda texnologik jarayonlarda maxsus va umummehnat operatsiyalarini bilish; texnologik jarayonlarni boshqarish, maxsus va umummehnat operatsiyalarini amaliyotda qoʻllay olish; texnik va kreativ fikrlashni, intellektual qobiliyatlarini shakllantirish; texnologik jarayon va tayyorlangan mahsulotlarni bajarish ketma-ketligi hamda mahsulot sifatini tahlil qila olish; buyum va jarayonlarni bajarishga oid xulosalar chiqarish hamda mehnat operatsiyalarini, mahsulot sifatini baholay olish; ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirishda tayanch va texnologiya faniga oid kompetensiyalarni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Bugungi kunda oʻquvchi yoshlarga taʼlim–tarbiya berish, yaʼni ularni har tomonlama davlat taʼlim standartlari talablariga javob beradigan etuk malakali mutaxassis darajasida tayyorlash mamlakatimizning dolzarb vazifalaridan biridir. Xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlar asosida, zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan, texnika va texnologiyalarning yutuqlari asosida kadrlar tayyorlashning mukammal tizimini shakllantirish Oʻzbekiston taraqqiyotining muhim shartidir”. Harakatlar strategiyasi asosida Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar

Mahkamasining 2017 yil 15 martdagi “Umumiy o‘rta ta’lim to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash haqida”gi 140-sonli, 2017 yil 6 aprelda “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-sonli Qarorlari qabul qilinganligi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish hamda uzviyligini ta’minlashda katta ahamiyat kasb etmoqda. Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risidagi qarorning qabul qilinishi ta’lim tizimini tubdan modernizatsiya qilinayotganligidan dalolat beradi, deb o‘ylaymiz. Hozirgi kunga kelib deyarli barcha fanlarni o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Texnologiya fani darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo‘llashda, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar. Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish ob’ekti sifatida emas, balki o‘quvchilar amaliy ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta’limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bor. Hozirgi kunga kelib deyarli barcha fanlarni o‘qitishda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan keng qo‘llanilib kelinmoqda. Texnologiya fani darslari maktabdagi boshqa fanlar uchun umumiy didaktik tamoyillarni qo‘llashda, uning o‘ziga xos xususiyatlari ham mavjud. O‘quvchilar bilish faoliyati bilangina emas, balki yaratish faoliyati bilan ham shug‘ullanadilar. Texnologiya fani mehnat qurollari, jarayonlari oddiy o‘rganish ob’ekti sifatida emas, balki o‘quvchilar amaliy ishlarini faollashtiruvchi ko‘rsatmalilik vositasi, didaktik material, ta’limning texnik vositasi sifatida xizmat qiladi. Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy metodlari, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishning o‘ziga xos jihatlari bor. O‘quvchilarni texnologiya fanini to‘liq o‘zlashtirishlari uchun o‘qitishning ilg‘or va zamonaviy usullaridan foydalanish, yangi informatsion- pedagogik texnologiyalarni tadbiiq qilish muhim ahamiyatga

egadir. Fanni o‘zlashtirishda darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar, tarqatma materiallar, elektron materiallar, virtual stendlar hamda ishchi holatdagi mashinalarning ishlab chiqarishdagi namunalari va maketlaridan foydalanilish, texnologiya faniga oid televizor, radioda berilgan eshittirishlarni ko‘rish, o‘rganilgan ish usullarini bajarish, jurnal va gazetalarda berilgan ma’lumotlarni o‘rganib borish, texnologiya faniga oid atamalarni topishda media vositalardan foydalanib, didaktik topshiriqlarni bajarish axborot manbalaridan (televizor, radio, audio-video yozuv, telefon) foydalana olish; fayllarni ochishda media-madaniyatga rioya qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur fanni o‘qitish jarayonida ta’limning zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanganimizda fan bo‘yicha o‘tkaziladigan amaliy mashg‘ulotlarda zamonaviy kompyuter texnologiyalari yordamida taqdimotlar namoyish qilganimizda o‘quvchilar ko‘rish orqali chuqurroq tasavvur va bilimga ega bo‘ladilar. Bizningcha texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish katta ijobiy natija beradi. Chunki oldin o‘quvchilarga texnologiya darslarida amaliy mashg‘ulotlar jarayonida buyumlar tayyorlash jarayonini o‘qituvchi tomonidan birma-bar namoyish qilib berilar edi, bu ortiqcha vaqt sarflanishiga, ayrim paytlarda o‘qituvchining qayta ko‘rsatib berishiga ham to‘g‘ri kelar edi. Bugungi kunda esa axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanib tasvirga olingan mehnat operatsiyalarining videodarslarini o‘quvchilarga havola etib, o‘quvchilar ishini o‘qituvchi tomonidan bemalol nazorat qilish imkonini beradi, o‘quvchilarning bilim darajalarini sezilarli darajada oshirishga imkon beradi. Axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning yana bir ahamiyatli tomoni shundaki, o‘quvchilarga malakali duradgorlar, chilangarlar, oshpazlar, tikuvchilar va turli sohadagi hunarmandlarimiz tomonidan bajarilgan o‘quv mashg‘ulotlari “Master klass” larni namoyish etish orqali ularda turli xil mehnat ko‘nikmalarini shakllantirish, kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini ham yaxshi yo‘lga qo‘yish imkoniyatini beradi. Biz yuqorida texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning ayrimlarini ko‘rsatib o‘tdik.

Xulosa qilib aytganda texnologiya darslarida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan keng foydalanilsa texnologiya ta'limi darslari sifati samarali bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P. Satbayeva «Mehnat va uni o'qitish metodikasi». Darslik. Toshkent TDPU. 2015-yil. [1]**
- 2. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaquiova A.K. "Texnologiya" 2-sinf darsligi. Toshkent "Sharq" . 2018-yil[2]**
- 3. Sanaqulov X.R., Xodiyeva D.P., Sanaqulova A.K. Mchnat ta'limi 3-sinf darsligi.Toshkent "Sharq" . 2016-yil[3]**
- 4.www.ziyonet.uz[4]**